




**Bankni strategik rivojlantirish
departamenti**

Jahon va moliya bozorlariga oid sharh

10 avgust, 2026 yil

SQB,NBU,AGRO BANK va IPOTEKA BANK evrobondlarining daromadliligi (20 oktabr 2025 yildan 10 iyul 2026 yilgacha Bloomberg ma'lumotlariga ko'ra, foizlarda)



SQB evrobondlarining daromadliligi

2024-yil iyul oyida SQB Londondagi fond birjasida xalqaro obligatsiyalarni joylashtirdi. Savdolarning birinchi kunida ularning daromadliligi 9,362%ni tashkil etdi.

SQB obligatsiyalarining daromadliligi o'tgan hafta boshida 6,357% darajasiga yetdi. Haftaning oxiriga kelib esa bu ko'rsatkich pasaydi va 6,293% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon daromadlilik 5,79% – 7,038% gacha o'zgarib turdi.

2025-yil oktyabr oyida SQB muvaffaqiyatli ravishda Londondagi fond birjasida xalqaro qo'shimcha birinchi darajali kapital (AT1) obligatsiyalarini joylashtirdi. Savdolarning birinchi kunida ularning daromadliligi 9,276%ni tashkil etdi.

SQB obligatsiyalarining daromadliligi o'tgan hafta boshida 9,57% darajasiga yetdi. Haftaning oxiriga kelib esa bu ko'rsatkich pasaydi va 9,503% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon daromadlilik 8,978% – 9,679% gacha o'zgarib turdi.



NBU evrobondlarining daromadliligi

O'tgan hafta NBU evrobondlarining daromadliligi 6,232% darajasida bo'lgan. Haftaning yakunida daromadlilik pasayib 6,188% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon bu ko'rsatkich 5,612-6,624% gacha o'zgarib turdi.



IPOTEKA BANK evrobondlarining daromadliligi

O'tgan hafta IPOTEKA BANK evrobondlarining daromadliligi 6,343% darajasida bo'lgan. Haftaning yakunida daromadlilik pasayib 6,29% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon bu ko'rsatkich 5,733-6,724% gacha o'zgarib turdi.




AGRO BANK evrobondlarining daromadliligi

O'tgan hafta AGRO BANK evrobondlarining daromadliligi 6,473% darajasida bo'lgan. Haftaning yakunida daromadlilik pasayib 6,442% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon bu ko'rsatkich 6,067-7,059% gacha o'zgarib turdi.

SOFR va Euribor


AQSH va Yevropadagi banklararo kreditlar bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi

SOFR dinamikasi



Yil boshidan buyon SOFR stavkasi 3,5-3,73% atrofida barqaror bo'lib turmoqda. Haftaning boshida SOFR stavkasi 3,65% ni tashkil etdi, haftaning oxiriga kelib ko'rsatkich o'zgarishsiz — 3,65 darajasida qoldi. Bu bozor likvidligi va monetar siyosatdagi kutilmalarning o'zgarishlarini ko'rsatadi. Federal rezervning foiz stavkalari bo'yicha pozitsiyasi SOFR stavkasi darajasini belgilashda davom etmoqda. Siyosiy o'zgarishlar kutilmalari stavkada kichik o'zgarishlarga olib kelishi mumkin.


Euribor dinamikasi



Euribor kutilganidan tezroq pasaymoqda. Yevropa Markaziy banki foiz stavkasini tez sur'atlar bilan kamaytirishni davom ettirmoqda. Buning sabablaridan biri – inflyatsiyaning pasayishi. Yevropadagi ko'plab ipoteka kreditlari bog'langan Yevropa banklararo stavkasi (Euribor) o'tgan haftaning boshiga kelib 2,474% (3 oylik) va 2,683% (6 oylik) darajalariga tushdi. 2023-yilning oktyabr o'rtalarida foiz stavkasi 4% dan oshgan edi. Euribor stavkasining tarixdagi eng yuqori darajasi 2008-yilning qishida qayd etilgan bo'lib, u deyarli 5,5% ni tashkil etgan. Yil boshidan buyon maksimal ko'rsatkichlar 2,724% (6 oylik) va 2,498% (3 oylik) ni tashkil etdi.


O'zbekiston valyuta bozori

O'zbekiston Respublikasi valyuta birjasidagi savdo hajmi, mln dollar



- ✓ O'tgan hafta valyuta birjasidagi savdo 902,6 million dollarni tashkil etdi, bu o'tgan haftaning savdo hajmiga nisbatan 45,0 million dollarga ko'proq.
- ✓ O'tgan haftaning boshida milliy valyutaning dollarga nisbatan maksimal kursi 11 989 so'mni tashkil etdi, keyin haftaning oxiriga kelib pasayib 11 952 so'mga yetdi.
- ✓ Har yili so'm o'rtacha 3,5-4,5% ga devalvatsiyaga uchraydi, 2023-yildan tashqari (9,77%), bu holat Rossiya valyutasi devalvatsiyasi eksport tushumlari kamayishi va mehnat migrantlarining pul o'tkazmalari bilan bog'liq edi. Joriy yil boshidan buyon devalvatsiya 0,00% ni tashkil etdi.

Dollarning so'mga nisbatan almashinish kursi




3.08.2026 yil holatiga ko'ra, aholi uchun dollar sotib olishda eng foydali kurs *MK bankda* qayd etilgan – 11 952 so'm. Boshqa banklarda esa kurs 11 970 – 12 010 so'm atrofida o'zgarib turdi.




Aholi uchun dollar sotish bo'yicha eng foydali kurs *Asaka bankda* qayd etilgan – 11 950 so'm. Boshqa ko'plab banklarda esa kurs 11 945 – 11 865 so'm atrofida bo'lgan.

Valyuta juftliklariga oid sharh (Refinitiv Eikon)


USD-RUB dinamikasi



RUB-YUAN dinamikasi



EUR-USD dinamikasi



Dollar rublga nisbatan mustahkamlanmoqda

Valyuta bozorida AQSh dollarining Rossiya rubliga nisbatan mustahkamlanishi kuzatildi. USD/RUB kursi 3-avgustdagi 80,4 rubldan 7-avgustga kelib 83,1 rublgacha oshdi. Kursning eng sezilarli o'sishi hafta ikkinchi yarmida kuzatildi.

Natijada rublning zaiflashuvi tendensiyasi shakllandi. USD/RUB kursining keyingi dinamikasi valyuta bozorida vaziyat hamda tashqi omillarga bog'liq bo'ladi. Qisqa muddatli istiqbolda USD/RUB kursining yanada oshishi bilan bog'liq xatarlar saqlanib qolmoqda.



Yuan rublga nisbatan o'z pozitsiyalarini mustahkamlamoqda

Hafta davomida Rossiya rubli Xitoy yuaniga nisbatan qadrsizlanish dinamikasini namoyish etdi. RUB/CNY kursi 3-avgustdagi 11,3 rubldan 7-avgustga kelib 11,7 rublgacha oshdi. Kursning asosiy o'sishi 6–7-avgust kunlariga to'g'ri keldi.

Mazkur dinamika ichki valyuta bozorida yuan pozitsiyalarining kuchayganini aks ettiradi. Qisqa muddatli istiqbolda RUB/CNY kursining harakati bozordagi talab va taklif nisbatiga bog'liq bo'ladi. Amaldagi omillar saqlanib qolgan taqdirda, kurs o'zgaruvchanligi yuqori darajada qolishi mumkin.



Yevro dollarga nisbatan mustahkamlanmoqda

EUR/USD valyuta juftligi hafta davomida nisbatan barqaror bo'lib, yevro foydasiga kichik ijobiy siljishni namoyish etdi. 7-avgust holatiga ko'ra, kurs 3-avgustdagi 1,1558 darajasidan 1,158 gacha ko'tarildi. Eng sezilarli dinamika hafta boshida kuzatildi, shundan so'ng kurs mo'tadil o'sish bosqichiga o'tdi. Umuman olganda, valyuta juftligi harakati cheklangan doirada saqlanib qoldi.


Qisqa muddatli istiqbolda EUR/USD kursining dinamikasi AQSh va yevro hududidagi pul-kredit siyosatiga oid kutilmalarga bog'liq bo'ladi.

Asosiy xom ashyo tovarlari narxlariga oid tahlil


Oltin narxlar dinamikasi
(bir untsiya uchun, AQSh dollarida)



Brent nefti narxlar dinamikasi
(bir barrel uchun, AQSh dollarida)



TTF gaz narxlar dinamikasi
(megavatt-soat uchun, AQSh dollarida)



Oltin bir hafta davomida sezilarli darajada qimmatlashdi



3–7-avgust kunlari davomida oltin qiymati 7,1 foizga oshib, hafta boshidagi 4 052,6 ko'rsatkichdan 4 341,7 gacha yetdi. Eng yuqori o'sish davrning ikkinchi yarmiga to'g'ri keldi.

Kotirovkalarning oshishi investorlarning oltinga bo'lgan barqaror qiziqishini aks ettiradi. Himoya aktivlariga nisbatan saqlanib qolayotgan talab bozorni qo'shimcha ravishda qo'llab-quvvatlamogda. Bozor ishtirokchilari oltin narxlarining keyingi dinamikasini diqqat bilan kuzatishda davom etmogda.

Brent: narxlarning yuqori o'zgaruvchanligi



Brent neftining narxi hafta davomida turli yo'nalishdagi dinamikani namoyish etdi. Bir barrel uchun narx 83,77 dollardan 79,36 dollargacha pasayganidan so'ng, 7-avgustga kelib 83,55 dollargacha tiklandi. Shu tariqa, narx hafta boshidagi darajaga deyarli qaytdi.

Eng katta tebranishlar ko'rib chiqilayotgan davrning o'rtalarida kuzatildi. Mazkur dinamika neft bozorining tashqi omillarga nisbatan sezgirliqi saqlanib qolayotganini aks ettiradi. Qisqa muddatli istiqbolda bozor ishtirokchilarining e'tibori talab va taklif o'rtasidagi muvozanatga qaratiladi.

TTF gazi: kotirovkalarning pasayishi



TTF tabiiy gazining narxi hafta davomida 66,5 dan 64,4 gacha pasaydi, Shu bilan birga, ko'rib chiqilayotgan davr mobaynida kotirovkalarda sezilarli tebranishlar kuzatildi.

Eng sezilarli pasayish 5-avgust kuni qayd etildi, shundan so'ng narx qisman tiklandi. Mazkur dinamika Yevropa gaz bozorida yuqori o'zgaruvchanlik saqlanib qolayotganini ko'rsatadi.

Qisqa muddatli istiqbolda narxlar dinamikasi talab darajasi, gaz zaxiralari hamda ob-havo sharoitlariga bog'liq bo'ladi.